

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA
DIDAKTIK, KOMMUNIKATIV, REFLEKSIV VA INNOVATIV
KOMPETENSIYALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH
JARAYONI VA UNING AHAMIYATI**

Sheraliyeva Mohchehra

Samarqand davlat pedagogika instituti

tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida didaktik, kommunikativ, refleksiv va innovativ kompetensiyalar tizimini shakllantirish jarayoni keng yoritilgan. Har bir kompetensiyaning mazmuni, ularni rivojlantirish mexanizmlari, metodik yondashuvlar va pedagogik faoliyatdagi ahamiyati tahlil etilgan. Kompetensiyalarni bir biriga uzviy bog'lashi boshlang'ich ta'lim sifati va pedagogning kasbiy mahoratiga ta'siri bo'yicha asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi shaxsi, didaktik, kommunikativ, refleksiv va innovative kompetensiyalar, pedagogik jarayon

**Процесс формирования системы дидактических, коммуникативных,
рефлексивных и инновационных компетенций у учителей начального
образования и его значимость**

Аннотация: В данной статье всесторонне раскрыт процесс формирования системы дидактических, коммуникативных, рефлексивных и инновационных компетенций у учителей начального образования. Проанализировано содержание каждой компетенции, механизмы их развития, методические подходы и их значение в педагогической деятельности. Обосновано влияние взаимной взаимосвязанности компетенций на качество начального образования и профессиональное мастерство педагога.

Ключевые слова: личность учителя, дидактические, коммуникативные, рефлексивные и инновационные компетенции, педагогический процесс.

The process and significance of developing didactic, communicative, reflective, and innovative competencies in primary school teachers

Abstract: This article provides an extensive overview of the process of forming a system of didactic, communicative, reflective, and innovative competencies among primary education teachers. It analyzes the content of each competency, the mechanisms for their development, methodological approaches, and their importance in pedagogical practice. The study substantiates how the interconnectedness of these competencies affects the quality of primary education and the professional mastery of the teacher.

Keywords: teacher's personality, didactic, communicative, reflective, and innovative competencies, pedagogical process.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tarbiya jarayoni eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonining jadal rivojlanishi, pedagogik texnologiyalarning takomillashishi va o'quvchilarning individual ehtiyojlarining ortib borishi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog, tashkilotchi va motivator sifatida ham faoliyat olib boradi. Shu boisdan uning didaktik, kommunikativ, refleksiv va innovativ kompetensiyalar tizimi pedagogik mahoratning asosiy fundamentini tashkil etadi.

O'qituvchi dars o'tishi davomida nafaqat bilimini balki kompetensiyaviy qobiliyatini ham ishga soladi. Pedagog darsni yaxshi o'tishi bu uning bilimi hisoblanadi. Agarda o'sha bilimni turli yo'llar bilan o'quvchilarni qiziqtirib o'ta olishi, dars samaradorligini oshishi uning kompetensiyalarni integratsiya qila olish qobiliyatini ko'rsatib beradi. Didaktik kompetensiya o'qituvchining ta'lim jarayonini mazmunan, metodik hamda tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra obrazli idrokka, ko'rgazmalilikka va harakatli faoliyatga moyil bo'lgani uchun darsni rejalash, o'quv materiallarini tanlash, o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish o'qituvchidan yuqori darajada pedagogik mahoratni talab qiladi. Didaktik kompetensiyaning

rivojlanganligi darsning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, interaktiv metodlardan foydalanish, baholashning shaffofligi va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda namoyon bo'ladi. Kommunikativ kompetensiya esa o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim jamoasi bilan samarali muloqot qilish mahoratidir. Pedagogik muloqotning sifatli tashkil etilishi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish, ishonch, motivatsiya, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu kompetensiya nutq madaniyati, tinglash madaniyati, o'quvchilarning ruhiy holatini his qilgan holda muloqotga kirisha olish, konfliktlarni konstruktiv hal qila bilish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa boshlang'ich sinfda o'quvchi bilan iliq, qo'llab-quvvatlovchi muloqotning o'rnatilishi uning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Refleksiv kompetensiya o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini tahlil qila olishi, o'z ishiga tanqidiy, ammo konstruktiv yondasha olishi, xatolarni aniqlashi va bartaraf etishi, dars jarayonini doimiy takomillashtirishga intilishi bilan belgilanadi. Refleksiya o'qituvchining kasbiy o'sish jarayonida eng muhim ichki mexanizmdir. Darsdan so'ng uni bosqichma-bosqich tahlil qilish, qo'llangan metodlarning samaradorligini baholash, o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini kuzatish, o'z ustida ishlash rejasini tuzish refleksiv kompetensiyaning amaliy ko'rinishlaridir. Bu kompetensiya o'qituvchining professional madaniyatini yuksaltirish, bilim va ko'nikmalarini yangilab borish bilan chambarchas bog'liq. Innovativ kompetensiya esa o'qituvchining yangiliklarga ochiqqligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, kreativ metodlarni joriy qilish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq eta olish qobiliyatidir. Bugungi ta'lim sharoitida o'qituvchi interaktiv taqdimotlar, raqamli o'quv resurslari, elektron baholash tizimlari, onlayn platformalar, STEAM yondashuvlari, loyiha asosidagi ta'lim, gamifikatsiya kabi innovatsion pedagogik usullarni faol qo'llashi talab etiladi. Innovatsiyalarga tayyor o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi, ularda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, ta'limning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida didaktik, kommunikativ, refleksiv va innovativ kompetensiyalar tizimini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika ilmida muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Ushbu masalani o'rganishga bag'ishlangan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kompetensiyalarining shakllanish jarayoni murakkab va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Bir qancha olimlar bu borada bir qancha ishlar amalga oshirgan va amaliyotga tadbqiq etishgan. Jumladan, Z. Toshbulovna G'iyosova o'qituvchining didaktik kompetensiyasi, uning tarkibiy tuzilmasi va rivojlantirish mexanizmlari keng qamrovda o'rgangan. Muallif ushbu kompetensiya boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifatli ta'lim berishning asosiy omili ekanini asoslab beradi. Shuningdek, N. Simonovich innovatsion pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuasini aniqlab, ularda didaktik, kommunikativ va refleksiv komponentlarning bir-biri bilan integratsiyalashgan holda namoyon bo'lishini ta'kidlagan [6]. Bu tadqiqotlar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida innovativ kompetensiya boshqa kompetensiyalar bilan chambarchas bog'liq tarzda shakllanishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, A.N. Abdivaliyevning pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish usullariga bag'ishlangan tadqiqot ishi esa o'qituvchilarda kommunikativ va didaktik kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslarini yoritib bergan. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati, o'quvchi bilan o'zaro aloqaning sifatini oshirishga xizmat qiladi. S. Tursunova va S. Isakovna tomonidan taqdim etilgan ishda boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va o'quv jarayonini takomillashtirish usullari tahlil qilingan. Bu tadqiqot innovativ kompetensiyani amaliy jihatdan rivojlantirish bo'yicha muhim tavsiyalar beradi va aynan boshlang'ich ta'limga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. V. Hummes va hamkorlarining izlanishlari o'qituvchilarda refleksiv kompetensiyaning rivojlanishiga bag'ishlanib, darslarni kuzatish, tahlil qilish va darsdan keyingi refleksiya metodlarining samaradorligini yoritadi [5].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili asosida shuni aytishimiz mumkinki, o'qituvchining didaktik, kommunikativ, refleksiv va innovativ kompetensiyalarini

alohida o'rganish mumkin bo'lsa-da, ular o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanar ekan. Har bir kompetensiya pedagogik jarayonning ma'lum bir jihatini aks ettiradi va ularning uyg'unlashgan holda rivojlanishi boshlang'ich ta'lim sifati, o'quvchi faoliyati samaradorligi hamda o'qituvchining kasbiy mahoratiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu kompetensiyalar tizim sifatida o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'qituvchining kasbiy faoliyatida integrativ tarzda namoyon bo'ladi. Didaktik kompetensiya darsning mazmunini shakllantirsa, kommunikativ kompetensiya uni samarali yetkazishini ta'minlaydi. Refleksiv kompetensiya pedagogik faoliyatni tahlil va takomillashtirishga xizmat qiladi, innovativ kompetensiya esa ta'lim jarayoniga zamonaviylik va kreativlik baxsh etadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ushbu kompetensiyalar majmuasini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, ularning zamonaviy jamiyatga moslashuvchan bo'lib voyaga yetishida alohida ahamiyat kasb etadi [4].

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida didaktik, kommunikativ, refleksiv va innovativ kompetensiyalar tizimini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu kompetensiyalar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir butun holatda pedagogik munosabatlarning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Didaktik kompetensiya o'quv faoliyatini samarali tashkil etish, kommunikativ kompetensiya esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, muloqotini sifatli olib borish bilan tavsiflanadi. Refleksiv kompetensiya o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, uni takomillashtirish imkonini beradi. Innovativ kompetensiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni qo'llaydi. Shu nuqtai nazardan, ushbu kompetensiyalarning tizimli ravishda shakllanishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [5]. O'qituvchida mazkur kompetensiyalarning birlashgan holda rivojlanishi ta'limning mazmuni,

metodlari va natijalarining sifat jihatdan yuqori bo'lishiga zamin yaratadi. Demak, boshlang'ich ta'limda sifatli natijaga erishish, eng avvalo, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini izchil va ilmiy asosda shakllantirishga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboeva O., Yo'ldosheva Sh. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. - Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.
3. Xoliqov A., To'raqulov A. *Umumiy pedagogika*. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Ikromov M. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. - Toshkent: Noshir, 2021.
5. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya*. - Moskva: Logos, 2018.
6. Simonovich N. Innovatsion pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuasi. - Moskva: Pedagogik innovatsiyalar markazi, 2018.
7. Abdivalieva A. N. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari: kommunikativ va didaktik yondashuvlar. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Tursunova S, Isakovna S. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va o'quv jarayonini takomillashtirish. - Samarqand: Zarafshon universiteti nashriyoti, 2021.